

**SIYOSIY METAFORALAR TARJIMASI: O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA
SEMANTIK SILJISHLAR VA TARJIMA STRATEGIYALARI****Allayeva Ra’no Choriyeva***Turon universiteti II bosqich magistranti Qarshi, O‘zbekiston*

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘zbek va ingliz tillaridagi siyosiy diskursda qo‘llaniladigan metaforalarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlar hamda ularni bartaraf etishda qo‘llaniladigan tarjima strategiyalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda siyosiy metaforalarning kognitiv, lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlari yoritilib, ularning milliy tafakkur va siyosiy ongning shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Tahlil natijalari metaforalarning tarjimasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentlik kamdan-kam hollarda uchrashini ko‘rsatdi. Aksariyat holatlarda funksional moslashuv, madaniy moslashuv va so‘zma-so‘z tarjima usullari ustuvor ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *siyosiy metafora, tarjima strategiyalari, semantik siljish, siyosiy diskurs, kognitiv lingvistika.*

Abstract. *This article examines the translation of political metaphors in Uzbek and English, focusing on semantic shifts and translation strategies. The study explores the cognitive, linguocultural, and pragmatic characteristics of political metaphors and their role in shaping political consciousness and national mentality. Using comparative, semantic, and discourse analysis methods, the research reveals that direct equivalence in translating political metaphors is relatively rare. Instead, translators frequently employ functional adaptation, cultural substitution, and paraphrasing strategies to preserve the communicative and pragmatic effect of the original text. The findings contribute to the development of political translation theory and provide practical insights for translators working with political discourse.*

Key words: *political metaphor, translation strategies, semantic shift, political discourse, cognitive linguistics.*

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda siyosiy diskurs lingvistika, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida eng faol va dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Globallashtirish jarayonlari, siyosiy axborot oqimining keskin ortishi hamda xalqaro siyosiy munosabatlarning murakkablashuvi siyosiy matnlarni nafaqat tahlil qilish, balki ularni turli tillarga adekvat tarjima qilish masalasini ham dolzarb masalalarga aylandi. Siyosiy nutq zamonaviy jamiyatda oddiy axborot yetkazish vositasi bo‘lib qolmay, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, g‘oyaviy qarashlarni mustahkamlash, siyosiy hokimiyatni

legitimashtirish va muayyan siyosiy pozitsiyani targ‘ib qilish kabi muhim funksiyalarni bajaradi.

Siyosiy diskursning ta‘sirchanligi, avvalo, unda qo‘llaniladigan lingvistik vositalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu vositalar orasida metafora alohida o‘rin tutadi. Kognitiv lingvistika vakillari, xususan G.Lakoff va M.Johnson ta‘kidlaganidek, metafora nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. [Лаккофф Дж., Джонсон М., 2004:27] Siyosiy metaforalar murakkab va mavhum siyosiy tushunchalarni oddiy, kundalik tajriba asosida tushuntirish imkonini beradi hamda inson ongiga kuchli psixologik va hissiy ta‘sir ko‘rsatadi. Metaforalar siyosiy tushunchalarni soddalashtirib, ularni auditoriya ongida aniq va jonli obrazlar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Siyosiy jarayonlarning “kurash”, “o‘yin”, “maydon”, “yo‘l” kabi konseptual modellar asosida ifodalanishi siyosatni insonning kundalik hayotiy tajribasi bilan uyg‘unlashtiradi. Bunday metaforik modellash siyosiy voqelikni inson uchun yanada tushunarli va qabul qilinadigan shaklga keltiradi. Shu bilan birga, metaforalar siyosiy nuqtai-nazarni baholash, muayyan g‘oyaviy qarashlarni mustahkamlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Biroq siyosiy metaforalarning tarjimasini murakkab va ko‘p qatlamli ilmiy muammo hisoblanadi. Chunki metaforalar til va madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir tilda ular muayyan milliy tafakkur, tarixiy tajriba va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiradi. X.Juraqobilovning ta‘kidlashicha, “Metafora madaniy-kognitiv xususiyatga ega lingvistik hodisa sifatida insonning fikrlash qobiliyati, uning tafakkur darajasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini ifodalaydigan eng zarur ham lisoniy, ham mental vositadir”. [Juraqobilova, H. X., 2025:58]

Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi lingvistik tuzilma, madaniy kontekst va konseptual tafakkurdagi farqlar siyosiy metaforalarning tarjimasida muayyan semantik siljishlarga olib keladi. Ba‘zi hollarda metaforaning obrazli komponenti to‘liq saqlanmaydi, ayrim vaziyatlarda esa u funksional yoki madaniy moslashtirish orqali qayta talqin qilinadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi o‘zbek va ingliz siyosiy diskursida uchraydigan metaforalarning tarjimasini tizimli ravishda tahlil qilish, tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlarni aniqlash hamda siyosiy matnlarning kommunikativ va g‘oyaviy ta‘sirini saqlab qolishga xizmat qiluvchi samarali tarjima strategiyalarini ilmiy asoslashdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Siyosiy metaforalar masalasi zamonaviy lingvistika va tarjimashunoslikda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, metaforaning kognitiv tabiati va uning turli diskursdagi funksiyalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Amerikalik olimlar G.Lakoff va M. Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi metaforaning inson tafakkurida obrazli modellar orqali shakllanishini asoslab berdi. [Лаккофф Дж., Джонсон М., 2004:256]

Ushbu yondashuv siyosiy metaforalarning tarjimasida ularning konseptual asoslarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Siyosiy diskurs va metafora munosabatlari J.Charteris-Black, T.Van Dijk kabi olimlar tomonidan tahlil qilinib, metaforalarning ideologik va pragmatik vazifalari aniqlangan. [Van Dijk, T.A., 1998] Rus olimi A.P.Chudinov zamonaviy rus siyosiy nutqiga xos metaforik modellarni tadqiq qildi. [Чудинов А.П., 2001:238]

Ularning tadqiqotlarida siyosiy metafora insonga ta’sir ko‘rsatish va siyosiy qarashlarni shakllantirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu jihat tarjimada faqat lingvistik moslik emas, balki kommunikativ ta’sirni saqlash muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Tarjimashunoslik doirasida P.Newmark, M.Baker va J.Munday siyosiy metaforalarni tarjima qilishda ekvivalentlik masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning ishlarida metaforalarni so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha semantik siljishlarga olib kelishi, shu bois funksional va pragmatik moslashuv ustuvor bo‘lishi ta’kidlanadi.

Mazkur masala o‘zbek tilshunoslari tadqiqotlarida ham muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, Sh.Safarov, N.Mahmudov, A.Nurmonovlar metaforaning kognitiv va lingvomadaniy jihatlarini o‘zbek tili materiali asosida tahlil qilib, metaforalarning milliy tafakkur bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatganlar. Ularning ishlari metaforalarning tarjimasida milliy mentalitet va madaniy kontekstni hisobga olish zarurligini ilmiy asoslaydi. Shuningdek, o‘zbek tarjimashunosligida I.G‘afurov, G‘.Salomov va D.Ashurova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda siyosiy va publitsistik matnlar tarjimasida semantik va pragmatik moslik masalalari yoritilgan. Mazkur tadqiqotlar tarjimada yuzaga keladigan semantik siljishlar tarjimonning ijodiy yondashuvi va kommunikativ ehtiyojlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar siyosiy metaforalar tarjimasini ko‘p qirrali jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Biroq ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida siyosiy metaforalarning semantik siljishlari va tarjima strategiyalarini qiyosiy jihatdan tizimli o‘rganish masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot siyosiy metaforalarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlarni aniqlash va ularni tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodlari zamonaviy tarjimashunoslik, kognitiv lingvistika va diskurs tahlili nazariyalariga asoslandi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi siyosiy nutqlar, rasmiy davlat bayonotlari, xalqaro tashkilotlar hujjatlari, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan siyosiy maqolalar va intervyular tanlab olindi. Ushbu manbalar siyosiy metaforalarning real diskursdagi qo‘llanishini tahlil qilish imkonini berdi.

Mazkur maqolani yozishda qiyosiy-tahliliy, semantik, diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, siyosiy metaforalarning tarjimasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentlik nisbatan kam uchraydi va bu holat ingliz hamda o‘zbek tillari o‘rtasidagi konseptual, madaniy va pragmatik tafovutlar bilan izohlanadi. Siyosiy metaforalar nafaqat til birliklari, balki muayyan kognitiv modellar va madaniy tajribalarni aks ettirgani sababli, ularning tarjimasida jarayonida ma‘no sathida turli darajadagi siljishlar yuzaga keladi. Tadqiqot materiallari asosida aniqlanishicha, metaforik birliklarning aksariyati tarjimada to‘liq saqlanmaydi, balki maqsadli auditoriyaning idrokiga moslashtiriladi. Ayrim hollarda siyosiy metaforalar ingliz va o‘zbek tillarida o‘xshash konseptual asosga ega bo‘lib, ular deyarli o‘zgarishsiz tarjima qilinadi. Bunday metaforalar odatda universal tajribaga tayangan konseptlar asosida shakllangan bo‘lib, “*kurash*”, “*maydon*”, “*bosqich*” kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, political arena birligi o‘zbek tilida siyosiy maydon, power struggle esa hokimiyat uchun kurash tarzida tarjima qilinib, metaforaning kognitiv modeli va pragmatik ta’siri saqlanib qoladi. Bu holatda metafora ikkala tilda ham siyosatni raqobat va qarama-qarshilik maydoni sifatida konseptualashtirishga xizmat qiladi. Biroq tahlil qilingan materiallarning katta qismida metaforaning to‘liq ekvivalentligi emas, balki qisman semantik moslashuv kuzatildi. Ko‘p hollarda metaforaning obrazli komponenti tarjimada soddalashtiriladi yoki bilvosita ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi to win the hearts and minds metaforasi o‘zbek tilida *xalq ishonchini qozonmoq* shaklida tarjima qilinadi. Ushbu tarjimada metaforaning emotsional va obrazli jihatlari qisqarib, uning asosiy pragmatik maqsadi – auditoriyaning o‘z tomoniga og‘dirish g‘oyasi saqlab qolingan. Bu holat dinamik yoki funksional ekvivalentlikning ustuvorligini ko‘rsatadi, chunki tarjimada muhim bo‘lgan jihat metaforaning shakli emas, balki uning kommunikativ ta’siridir.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, milliy-madaniy xususiyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan siyosiy metaforalar tarjimada eng katta semantik siljishlarga uchraydi. Ingliz siyosiy diskursida keng qo‘llaniladigan sport va harbiy metaforalar, masalan, to score a political victory yoki to launch a campaign, o‘zbek tilida har doim ham so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi. Bunday hollarda tarjimon metaforani madaniy jihatdan mosroq birlik bilan almashtiradi yoki parafrasa usulidan foydalanadi. Natijada metaforaning shakli tuzilishi o‘zgaradi, biroq uning pragmatik va ideologik yo‘nalishi saqlanib qoladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari siyosiy metaforalarning tarjimasida semantik siljishlar tasodifiy hodisa emas, balki kommunikativ va madaniy zarurat natijasi ekanligini ko‘rsatadi. Metaforalar siyosiy diskursda auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lgani sababli, tarjimada aynan shu ta’sirni saqlab qolish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu bois tarjimon ko‘pincha formal ekvivalentlikdan voz kechib, funksional moslikni ta’minlashga intiladi. Ushbu yondashuv

siyosiy matnlarning maqsadli auditoriya tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Muhokama. O‘tkazilgan tahlil natijalari siyosiy metaforalarning tarjimasida tarjimondan nafaqat yuqori darajadagi lingvistik bilimlarni, balki chuqur madaniy va kognitiv kompetensiyani ham talab qilishini ko‘rsatadi. Siyosiy metaforalar til birliklari sifatida oddiy ko‘chma ma‘noga ega bo‘lish bilan cheklanmay, muayyan milliy tafakkur, tarixiy tajriba va ijtimoiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Shu bois ularning tarjimasida yuzaga keladigan semantik siljishlar aksariyat hollarda tarjimonning xatosi emas, balki maqsadli auditoriya uchun kommunikativ moslikni ta‘minlash zaruratidan kelib chiqadi. Semantik siljishlar siyosiy metaforalarning tarjimasida muqarrar hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tarjima jarayonida metaforaning shakliy jihatlarini to‘liq saqlab qolish har doim ham mumkin emas, chunki har bir til o‘ziga xos konseptual tizim va madaniy kodlarga ega. Shu nuqtai nazardan, siyosiy metaforalarning tarjimasida formal ekvivalentlikdan ko‘ra funksional va pragmatik ekvivalentlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tarjimon metaforaning tashqi shakliga emas, balki uning auditoriyaga ko‘rsatadigan ta‘siriga e‘tibor qaratishi lozim. Siyosiy diskursda metaforaning asosiy vazifasi auditoriyani ishontirish, muayyan siyosiy pozitsiyani legitimlashtirish va ijtimoiy ongning shakllantirishdan iborat. Metaforalar orqali siyosiy voqelik soddalashtiriladi, baholanadi va ma‘lum ideologik doirada talqin qilinadi. Shu sababli tarjimada aynan ushbu pragmatik va ideologik ta‘sirni saqlab qolish ustuvor vazifa hisoblanadi. Agar metafora so‘zma-so‘z tarjima qilinib, auditoriya uchun tushunarsiz yoki nojo‘ya bo‘lib qolsa, siyosiy matnning asosiy kommunikativ maqsadi buziladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, siyosiy metaforalarning tarjimasida murakkab va ko‘p qatlamli jarayon bo‘lib, u semantik, madaniy va pragmatik omillarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi konseptual va madaniy tafovutlar tarjima jarayonida muayyan semantik siljishlarga olib keladi, biroq bu holat tarjimaning kamchiligi emas, balki kommunikativ moslashuvning tabiiy natijasi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, siyosiy metaforalarning tarjimasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentlik kam uchraydi va ko‘pincha funksional moslashuv, madaniy adaptatsiya hamda parafraz strategiyalaridan foydalaniladi. Ushbu yondashuvlar siyosiy matnning asosiy mazmuni va auditoriyaga ta‘sir ko‘rsatish xususiyatini saqlab qolishga xizmat qiladi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot siyosiy metaforalar tarjimasini kognitiv va lingvokulturologik nuqtai nazardan talqin qilish imkonini beradi hamda siyosiy tarjima nazariyasini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Olingan xulosalar siyosiy matnlar bilan ishlovchi tarjimonlar uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.
2. Charteris-Black, J. (2011). *Politicians and Rhetoric: The Persuasive Power of Metaphor*. London: Palgrave Macmillan.
3. Juraqobilova, H. X. (2025). KOGNITIV METAFORALAR TARJIMASI: KONSEPTUAL VA MADANIY TAFOVUTLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(1), 51-59.
4. Juraqobilova, X. (2025, November). SHE’RIY ASARLARDA KOGNITIV METAFORALAR SHAKLLANISHIDA LINGVOMADANIY OMILLARNING TA’SIRI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 01).
5. Jurakobilova Hamida. (2024). Communicative Games As Key Elements In Teaching Foreign Languages. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 5(7), 343–347.
6. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford: Oxford University Press.
7. Lakoff, G., Johnson, M. (2003). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
8. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с.
9. Munday, J. (2016). *Introducing Translation Studies: Theories and Applications*. London: Routledge.
10. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall.
11. Van Dijk, T. A. (1998). *Ideology: A Multidisciplinary Approach*. London: Sage Publications.
12. Чудинов А.П. Россия в метафорическом зеркале: Когнитивное исследование политической метафоры (1991-2000). Монография. – Екатеринбург, 2001. – 238 с.
13. Чудинов А.П. Метафорическая мозаика в современной политической коммуникации. Монография / Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2003. – 248 с.